



**Inson huquqlari bo'yicha  
O'zbekistonda Respublikasi  
Milliy markazi**



**O'zbekiston Respublikasi Millatlararo  
munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar  
masalalari bo'yicha qo'mitasi**

**O'zbekiston Respublikasi Millatlararo  
munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar  
masalalari bo'yicha qo'mitasi va Inson huquqlari  
bo'yicha O'zbekiston Respublikasi  
Milliy markazi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik**

**M E M O R A N D U M I**

**O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi  
vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi va Inson huquqlari bo‘yicha  
O‘zbekistonda Respublikasi Milliy markazi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik  
MEMORANDUMI**

O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita) bir tomondan va Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekistonda Respublikasi Milliy markazi (keyingi o‘rinlarda – Markaz) ikkinchi tomondan, birgalikda Taraflar deb ataluvchilar,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-dekabrdagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekistonda Respublikasi Milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-4056-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-52-sonli Farmoni, shuningdek, 2025-yil 19-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-115-sonli qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan maqsad va vazifalarga asoslanib,

mamlakatimizda umummilliy totuvlik, birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlash, barcha fuqarolarga teng huquq va imkoniyatlar yaratish, ko‘p millatli xalqimizning jonajon O‘zbekistonimiz farovonligiga daxldorligini kuchaytirish, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirish, shuningdek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilish tamoyili e’tirof etilganligini inobatga olib,

millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish, jamiyatda do‘stlik, o‘zaro hamjihatlik, bag‘rikenglik va birdamlikni mustahkamlash orqali yagona fuqaroviy o‘zlikni shakllantirish;

O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ta‘minlash orqali ularning umummilliy taraqqiyotga daxldorligini kuchaytirish;

xorijdagi vatandoshlar jamoalari va o‘zbek diasporalarining milliy o‘zligini saqlashga ko‘maklashish hamda ularning ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatini Vatanimiz rivojiga safarbar etishni qo‘llab-quvvatlash;

xalq diplomatiyasi mexanizmlari orqali xorijiy mamlakatlar bilan ijtimoiy-madaniy va do‘stlik aloqalari hamda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlashni qayd etgan holda,

o‘zaro hurmat va ishonch, umumiy manfaat va maqsadlar, mas’uliyat va xolislik prinsiplariga tayangan holda, quyidagilar haqida kelishib oldilar:

## **1-modda. Memorandumning maqsadi**

Ushbu memorandumning maqsadi mamlakatimizda umummilliy totuvlik, birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlash, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, kamsitilishning barcha shakllariga qarshi kurashish, barcha fuqarolar, ayniqsa yoshlar uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy huquqlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, ko'p millatli O'zbekiston ravnaqiga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirishdan iboratdir. Shu bilan birga, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyatda do'stlik va bag'rikenglik muhitini kuchaytirish orqali barcha aholi qatlamlarida, xususan yoshlarda yagona fuqaroviy o'zlikni shakllantirish, xorijdagi yosh vatandoshlarning milliy o'zligini asrab-avaylash va ularning salohiyatini Vatan rivojiga yo'naltirish, shuningdek yoshlar tashabbuslari va xalq diplomatiyasi hamda inson huquqlari bo'yicha ta'lim va targ'ibotni kengaytirish, huquqiy madaniyatni oshirish, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish orqali O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlashdan iborat.

## **2-modda. Hamkorlik sohalari**

Mazkur Memorandum doirasida Taraflar quyidagi yo'nalishlarda hamkorlikni amalga oshiradilar:

### **Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, targ'ib qilish va monitoring qilish sohasida:**

O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining, shuningdek xorijdagi vatandoshlarning inson huquqlari holatini birgalikda o'rganish, tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish;

inson huquqlari bo'yicha xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlarining bajarilishi ustidan jamoat nazoratini amalga oshirish;

ayrim ijtimoiy guruhlar (yoshlar, ayollar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, ozchiliklar) huquqlariga alohida e'tibor qaratgan holda, kamsitmaslik tamoyilini mustahkamlash;

irqiy, milliy, diniy va tilga oid adovatni qo'zg'atuvchi harakatlarning oldini olish bo'yicha birgalikda chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

### **Huquqiy ta'lim va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish sohasida:**

yoshlar va keng jamoatchilikning huquqiy ongi va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda hamda barcha ijtimoiy guruhlar orasidagi salbiy g'oyalarga nisbatan immunitetni shakllantirish, inson huquqlari

qadriyatlarini yosh avlod ongiga singdirish;

inson huquqlari bo'yicha o'quv dasturlari, treninglar, konferensiyalar, forumlar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish;

**Xorijdagi vatandoshlar huquqlarini himoya qilish va ular bilan aloqalarni rivojlantirish sohasida:**

xorijdagi vatandosh shaxslarning huquq va imkoniyatlarini ta'minlashda O'zbekistonning konsullik-huquqiy yordam ko'rsatish tizimi bilan hamkorlik qilish, qonun ustuvorligini ular orasida keng targ'ib qilish;

chet elda yashovchi vatandoshlarning mehnat, ijtimoiy ta'minot, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa huquqlarini amalga oshirishga ko'maklashish;

xorijdagi vatandosh yoshlar va diasporalar bilan aloqalar o'rnatish va ular bilan qo'shma onlayn/oflayn tadbirlar, madaniy kechalar va hamkorlik dasturlarini yo'lga qo'yish;

**Xalqaro hamkorlik va xalq diplomatiyasi sohasida:**

inson huquqlari bo'yicha xalqaro tashkilotlar, xorijiy inson huquqlari muassasalari va nodavlat tashkilotlari bilan aloqalar o'rnatish, tajriba almashish;

O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi yutuqlari va majburiyatlarini xalqaro maydonda yoritish;

Taraflar kelishuviga ko'ra, ushbu Memorandum maqsadiga zid bo'lmagan boshqa tadbirlar ham o'tkazilishi mumkin.

### **3-modda. Hamkorlikning amalga oshirilishi**

Taraflar Memorandumning 2-moddasida belgilangan hamkorlikdagi tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish maqsadida manzilli va davriy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Taraflar o'z vakolatlari doirasida millatlararo munosabatlar va inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi statistik, tahliliy va axborot materiallarini doimiy ravishda o'zaro almashib boradilar.

### **4-modda. Moliyaviy masalalar**

Ushbu Memorandumning shartlari jamoatchilik asosida tashkil etiladi va moddiy xarajatlarni talab etmaydi.

Memorandum doirasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xarajatlar har bir Tarafning o'ziga tegishli qismi bo'yicha yoxud o'zaro kelishuvga muvofiq qoplanadi.



### **5-modda. O'zgartirish va qo'shimchalar**

Har bir Taraf ushbu Memorandumga yoxud uning bir qismiga o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritishni yozma ravishda taklif etishi mumkin.

Taraflar o'zaro kelishgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda ushbu Memorandumning ajralmas qismi hisoblanadigan va Taraflar belgilagan kundan boshlab kuchga kiradigan alohida bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi.

### **6-modda. Nizolarni hal qilish**

Mazkur Memorandum qoidalarini talqin qilish, bajarish va qo'llashda Tomonlar o'rtasida vujudga keladigan har qanday kelishmovchilik yoki nizolar o'zaro maslahatlashuvlar va (yoki) muzokaralar yo'li bilan do'stona ravishda hamjihatlik asosida hal qilinadi.

Taraflarning ushbu Memorandumni imzolashlari ular uchun hech qanday yuridik majburiyatlarni yuklatmasligi va moliyaviy majburiyatlarni vujudga keltirmasligi haqida kelishib oladilar.

### **7-modda. Memorandumning kuchga kirishi, amal qilishi va o'z kuchini yo'qotishi**


Ushbu Memorandum imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va uch yil davomida amal qiladi.

Taraflar yozma ravishda kelishgan holda mazkur memorandumning amal qilishini yana uch yil muddatga qadar uzaytirishi mumkin.

Taraflardan biri Memorandumdan chiqish istagini yozma ravishda ikkinchi Tarafga jo'natadi va uning amal qilish muddati 3 (uch) oydan so'ng to'xtatiladi. Bunda Memorandum doirasida tasdiqlangan amaldagi chora-tadbirlar dasturlari ham ushbu muddat tamomlangan kunda to'xtaydi.


Ushbu Memorandum 2026 yil "30" iyul kuni Toshkent shahrida o'zbek tilida bir xil ikki asl nusxada tuzildi.

**O'zbekiston Respublikasi  
Millatlararo munosabatlar va  
xorijdagi vatandoshlar masalalari  
bo'yicha qo'mitasi raisi**

 **K.R. Sariyev**

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur  
ko'chasi, 45-uy

**Inson huquqlari bo'yicha  
O'zbekistonda Respublikasi  
Milliy markazi direktori**

 **A.X. Saidov**

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,  
Islom Karimov ko'chasi, 15-uy